

## O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI

Yo'ldashev Xurshid Xurramovich

"Agrobank" ATB Uzun filiali boshqaruvchi o'rinosari,

Muammoli kreditlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14784486>

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy ishda O'zbekiston tijorat banklarida yuzaga kelayotgan muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari tahlil qilinadi. Muammoli kreditlar – bu o'z vaqtida to'lannmaydigan yoki qaytarib olinmaydigan qarzlar bo'lib, ular banklar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ishda muammoli kreditlarning sabablari, uning iqtisodiy va moliyaviy ta'siri, shuningdek, tijorat banklari tomonidan bu muammoni hal qilish uchun qo'llaniladigan usullar va strategiyalar ko'rib chiqiladi. Xususan, kreditni qaytarishning samarali mexanizmlari, qarz oluvchilarga nisbatan yuridik va moliyaviy chora-tadbirlar, kreditni qaytarishning yangi texnologiyalari, hamda davlat tomonidan berilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganiladi. Muammoli kreditlarni qisqartirish va bartaraf etish uchun taklif etilayotgan innovatsion usullar va davlatning roli hamda kredit risklarini boshqarish strategiyalari ilmiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, tijorat banklari, muammoli kreditlar, kredit risklari, bartaraf etish chora-tadbirlari, kredit qaytarish, moliyaviy tahlil, qarz oluvchilar, davlat qo'llab-quvvatlashi, innovatsion usullar, kredit boshqaruvi.

## PROBLEM LOANS IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN AND MEASURES TO ELIMINATE THEM

**Annotation.** This scientific work analyzes the problem loans that arise in commercial banks of Uzbekistan and measures to eliminate them. Problem loans are debts that are not repaid on time or are not recoverable, which can negatively affect the activities of banks. The work examines the causes of problem loans, their economic and financial impact, as well as the methods and strategies used by commercial banks to solve this problem. In particular, effective loan repayment mechanisms, legal and financial measures against borrowers, new technologies for loan repayment, and support mechanisms provided by the state are studied. Innovative methods proposed to reduce and eliminate problem loans, the role of the state, and credit risk management strategies are scientifically analyzed.

**Keywords:** Uzbekistan, commercial banks, problem loans, credit risks, remedial measures, loan repayment, financial analysis, borrowers, state support, innovative methods, credit management.

## ПРОБЛЕМНЫЕ КРЕДИТЫ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА И МЕРЫ ПО ИХ УСТРАНЕНИЮ

**Аннотация.** В данной научной работе анализируются проблемные кредиты, возникающие в коммерческих банках Узбекистана, и меры по их устранению. Проблемные кредиты — это кредиты, которые не погашаются в срок или не подлежат взысканию, что может негативно отразиться на деятельности банков. В работе рассматриваются причины возникновения проблемных кредитов, их экономические и финансовые последствия, а также методы и стратегии, используемые коммерческими банками для решения этой проблемы. В частности, будут изучены эффективные механизмы погашения кредитов, правовые и финансовые меры воздействия на заемщиков, новые технологии погашения кредитов, а также механизмы поддержки, предоставляемые государством. Будут научно проанализированы инновационные методы, предлагаемые для сокращения и устранения проблемных кредитов, роль государства и стратегии управления кредитными рисками.

**Ключевые слова:** Узбекистан, коммерческие банки, проблемные кредиты, кредитные риски, меры по исправлению ситуации, возврат кредитов, финансовый анализ, заемщики, государственная поддержка, инновационные методы, кредитный менеджмент.

### KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri sifatida, so'nggi yillarda kredit tizimi ham sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bank tizimi va moliya sektori o'zgarayotgan sharoitlarga moslashib, yangi imkoniyatlarni yaratish va mavjud resurslardan maksimal darajada foydalanish maqsadida faoliyat yuritmoqda. Biroq, kredit berish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, xususan, muammoli kreditlar (MK), banklar va butun iqtisodiyot uchun katta xavf tug'dirishi mumkin.

Muammoli kreditlar, ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, ko'plab molivaviy muammolarni keltirib chiqaradi va iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida bu muammolarni hal qilish uchun kompleks yondashuv va turli choralar ko'rish zarur. Ushbu maqolada muammoli kreditlarning sabablari, uning iqtisodiyotga ta'siri va ularni bartaraf etish uchun taklif etilgan strategiyalar tahlil qilinadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanib borar ekan, tijorat banklarining kredit faoliyati ham kengayib bormoqda. Biroq, banklar tomonidan berilgan kreditlar orasida ba'zan qaytarilmaydigan yoki kechiktirilgan qarzlar ko'payib, bu muammoli kreditlar shaklida yuzaga keladi. Muammoli

kreditlar banklarning moliyaviy barqarorligiga tahdid solishi, kredit portfelining sifatini pasaytirishi va tizimning ishonchililiga zarar yetkazishi mumkin.

### **TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI**

Muammoli kreditlar — bu banklarga qarz berilgan, lekin o'z vaqtida qaytarilmagan yoki qaytarilishida qiyinchiliklarga duch kelgan kreditlardir. Bunday kreditlar, o'z navbatida, bir qancha omillar ta'sirida yuzaga keladi:

Maqsadli qarorlar va iqtisodiy sharoitlar: O'zbekiston iqtisodiyoti o'zgaruvchan bo'lib, inflyatsiya darajasi, valyuta kurslari va boshqa makroiqtisodiy omillar banklar uchun risklarni oshiradi. Bu o'zgarishlar qarz oluvchilarni to'lovlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duchor qiladi.

Birinchi navbatda, bozorning yomon tahlili: Banklar qarz berishdan oldin, kreditning xatarlarini to'g'ri tahlil qilmaslik muammoli kreditlarga olib keladi. Bunda kredit tahlilining zaifligi, qarz oluvchining moliyaviy holatini noto'g'ri baholash kabi xatoliklar mavjud.

Korxonalarning faoliyatidagi muammolar: Ko'plab kichik va o'rta biznes korxonalari o'z faoliyatida muammolarga duch kelmoqda, shu sababli ular o'z qarzlarini to'lashda qiynalishlari mumkin.

Xalqaro moliyaviy inqirozlar: Dunyo bo'ylab moliyaviy inqirozlar va iqtisodiy turbolentsiya ham O'zbekiston bank tizimiga ta'sir ko'rsatib, kreditlarni qaytarishda kechikishlarga olib keladi.

Muammoli kreditlarning oldini olishdan oldim kredit siyosi tushunchasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Bankning kredit siyosati — kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlar tomonidan kredit portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart. Tijorat banklari kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqiladi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Har bir bank o'z kredit siyosatini ishlab chiqishi va amalda joriy etishi lozim. Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruvi a'zolari, bankning boshqa mansabdor shaxslariga yuklatiladi.

Kredit siyosatining xarakteri bank kredit portfelining tarkibiga, bank o'z faoliyatini amalga oshirayotgan hududning iqtisodiyotiga qarab aniqlanadi. Kredit strategiyasini shakllantirishda va tegishli kredit siyosatini tayyorlashda bank ushbu omillarni hisobga olishi shart.

Bankning qredit siyosati uning joriy bank strategiyasi va iqtisodiy holatiga muvofiqligini ta'minlash uchun bank Kengashi tomonidan yiliga kamida bir marta tegishli yilning 1 fevraligacha bo'lган muddatda qayta ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak.

Kredit siyosati bank faoliyati turlariga qarab mazmuni va tuzilmasi jihatidan farq qiladi.

Mazkur bo'lim bank maqomi va u joylashgan manzildan qat'i nazar kredit siyosatida aks ettirilishi lozim bo'lган umumiy masalalar ro'yxatini belgilab beradi.

Bunda kredit siyosatining yo'nalişlarida berilayotgan kreditlarning hajmi va shakli, qisqa va uzoq muddatli kreditlar o'rtaşıdagi nisbat, moliyaviy axborotlarni tahlil etish jarayoni, kredit portfeli hamda mablag'larning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar aks ettirilishi lozim.

Har qanday kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: uzoq muddatli investitsiyalardan aktsiyadorlarga yuqori daromad kelishini ta'minlash, likvidlikni saqlab turish, tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish, siyosat va tadbirlar birligini kafolatlash, qonunlar va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, hududning kreditlarga bo'lган ehtiyojini qondirish.

Kreditlashning strategik yo'nalişlari bank Kengashi tomonidan belgalanadi va tasdiqlanadi.

Kredit siyosati kredit berish jarayoniga jalb etilgan kredit xodimining lavozimi va vakolatlariga qarab ularning har biri uchun kreditlash to'g'risida qaror qabul qilish va kredit miqdorini cheklash tartibini belgilab beradi. Kreditlash uchun mas'ul bo'lган barcha shaxslar vakolatlari kredit siyosatida qayd etiladi.

Kredit qo'mitasi majlislari va uning bank boshqaruvi organlari oldida hisobot berishi davriyligi ham kredit siyosatida belgilab qo'yilishi kerak.

## TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Kredit siyosati kreditlashning turli ko'rsatkichlari (kredit turlari, iqtisodiyot tarmoqlari, jug'rofiy hududlar va b.) bo'yicha kreditlarning to'planishi darajasini aniqlash va uni monitoring qilish to'g'risidagi talablarni o'z ichiga olishi zarur. Kredit siyosati muntazam ravishda rahbariyatga topshiriladigan tegishli hisobotlarni tayyorlashga doir talablarni belgilashi lozim.

Kreditni to'lash muddati uni to'lashning birlamchi va ikkilamchi manbalarini sinchiklab baholash asosida belgilanishi kerak. Kredit siyosati rahbariyat nuqtai nazaridan har xil toifa va turdag'i kreditlarni to'lashning ma'qul dasturlaridan iborat bo'lishi zarur.

Kredit siyosati kreditlar berishning maksimal muddatlarini belgilashi lozim. Ushbu siyosat shuningdek, kreditning asosiy summasini kredit to'lash muddatining so'ngida va kredit to'lashning boshlang'ich muddati uzaytirilayotganda qaytariladigan kredit turlarini berish tartibini ham o'z ichiga olishi kerak.

Kredit siyosati to'lovlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, mablag'larning qaytarilishi va berilgan kreditlar bo'yicha qarzni undirib olish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

Bank kredit siyosati kredit berish bosqichida ham, keyingi monitoring bosqichlarida ham jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olishi kerak. Moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish, naqd pul oqimi va boshqa ma'lumotlar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish yuzasidan qo'yiladigan talablar aniq ifodalanishi zarur. Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, banklar talab qiladigan ma'lumotlar Milliy Buxgalterlik Hisobi Standartlariga (MBHS) muvofiq takdim etilishi kerak.

Kredit siyosatida potentsial qarzdorlarning kredit qobiliyatini (likvidlik, qoplanish, muxtorlik koeffitsientlari, kapitallashtirish darajasi, garov ta'minoti ekspertizasi va b.) aniqlash uchun ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish tadbirlari batafsil yoritilishi lozim. Bank qarzdorlarning kredit qobiliyati mezonlari va ularni baholash metodikasini aniq belgilab olishi kerak.

Garov taminotiga nisbatan qo'yiladigan talablar:

Kredit siyosati muayyan turdagи qimmatliklar (ko'chmas mulk, avtomobillar va b.) garovi asosida beriladigan ssudalarning maksimal miqdori limitlarini o'z ichiga olishi hamda ta'minlangan ssudalarning har bir turi uchun kredit hujjatlari to'plamini rasmiylashtirish tadbirlarini belgilashi lozim. Bank kredit siyosatida garov kreditlashning uni berish vaqtidayoq kreditni to'lash manbasi (naqd pul yoki davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (xazina veksellari) bilan ta'minlangan kreditlar bundan mustasno) hisoblangan yagona asosi bo'lmasligi belgilab qo'yilishi zarur.

Kredit siyosati garovga olingan mulk turiga qarab garov mavzuiga nisbatan qo'yiladigan talablar va kreditning garov qiymatiga nisbatini o'z ichiga olishi kerak. Garov mavzui sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish lozim bo'lган paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lган zarar o'rmini qoplashi lozimligi aniq yoritilishi zarur.

Hujjatda garov mavzui mustaqil baholovchi va ichki bank baholovchisi tomonidan baholanadigan hollar ko'rsatib o'tilishi kerak. Turli garov toifalarini baholash uslublari batafsil aks ettirilishi lozim. Siyosat ko'chmas mulk, ishlab chiqarish jihozlari va iste'mol kreditlarini moliyalash uchun beriladigan kreditlarni to'lash hisobiga qarzdor tomonidan bo'nak to'lovlarni kiritishga doir muayyan talablarni o'z ichiga olishi zarur.

Kredit monitoringiga nisbatan qo'yiladigan talablar

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim.

Kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari kerak. Qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tushunchasining aniq ifodalaniishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek, bank Boshqaruvi va Kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Hisobotlarda ahvolning yomonlashishi, yashirin zararlar sabablari va sorlomlashtirish rejaliari batafsil bayon etiladi.

Siyosat qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'riliшини talab qilishi kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosati turli kreditlar va qarzdorlar bo'yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniklashda foydalaniladigan omillarni o'z ichiga olishi kerak. Bunda hech bo'limganda resurslar qiymati, kredit bo'yicha xizmat ko'rsatishga doir kutilayotgan xarajatlar, vositachilik haqi, ma'muriy sarflar, ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar va bank marjasni baholanishi zarur.

Kredit siyosati bank bilan bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlar bo'yicha Markaziy bank talablariga muvofiq keluvchi limitlarni o'z ichiga olishi lozim.

Kredit siyosatida bank bilan bogliq shaxslar bilan bitimlarni qisqartirish yoki ularni tuzishning har qanday imkoniyatlarini bartaraf etish maqsadida bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlarni tasdiqlash va qayta tiklash tartibi va tadbirlari belgilab qo'yilishi kerak.

Siyosat bank kredit portfelini vaqtı-vaqtı bilan baholashga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ro'yxatini belgilashi hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va tuzatishlar minimal yuzaga keluvchi yo'qotishlar bilan kiritilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo'yishi lozim.

Tahlil maqsadlari kredit sifatini aniklash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosati muvofiqligini ta'minlash va kredit hujjalarni rasmiylashtirish tadbiri, moliyaviy tahlil, garovni rasmiylashtarish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilish.

Kredit siyosati bank xizmatlari va bo'linmalari tomonidan bank Boshqaruvi va Kengashiga kreditlashning turli jihatlari bo'yicha topshiriladigan hamda kredit portfeli sifati va kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlar turi va davriyilagini belgilashi lozim.

Hisobotlar filiallar va bank bo'yicha umuman kreditlash vositalari va yo'nalishlariga qarab tavakkalchiliklarni baholash uchun boshqarishning turli darajalariga moslashtirilgan hamda batafsil yoritilgan bo'lishi kerak.

Bilamizki, muammoli kreditlar banklar uchun katta xavf tug'diradi. Shu sababli, banklar bu muammoni bartaraf etish uchun turli usul va mexanizmlarni qo'llashadi. Ular quyidagi asosiy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

Kredit risklarini boshqarish: Banklar kreditlar berishdan oldin risklarni chuqur tahlil qilishi zarur. Kreditni qaytarish ehtimoli yuqori bo'lgan mijozlar bilan ishlash, ularning moliyaviy holatini muntazam tekshirish bankning xavfini kamaytiradi.

Kreditni qaytarish uchun faoliyat ko'rsatish: Banklar muammoli kreditlarni qaytarish uchun o'z mijozlari bilan to'lovlarni kechiktirish yoki muddatini uzaytirish bo'yicha kelishuvlar tuzishi mumkin. Bunda, mijozlarga moliyaviy yordam ko'rsatish va ularga qaytarish imkoniyatlarini yaratish muhimdir.

O'zaro kelishuvlar va jazo mexanizmlari: Agar qarz oluvchi kreditni qaytarish imkoniyatiga ega bo'lmasa, banklar yuridik choralar ko'rishi mumkin. Bu, masalan, qarz oluvchining mulkini sotish yoki boshqa to'lov usullari orqali qarzni qaytarishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash: Bugungi kunda banklar kredit risklarini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni, masalan, big data, sun'iy intellekt va blockchain texnologiyalarini ishlatishmoqda. Bu texnologiyalar kredit tahlilini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Davlatning roli: O'zbekistonda davlat muammoli kreditlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun turli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini taklif etadi. Masalan, kreditlarni qaytarish bo'yicha davlat tomonidan taqdim etiladigan subsidiyalar yoki kreditlarning bir qismini qoplash imkoniyatlari banklarga yordam berishi mumkin.

## Xulosa

O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar tizimning mustahkamligi va barqarorligiga tahdid solishi mumkin. Shuning uchun banklar uchun muammoli kreditlarni aniqlash, tahlil qilish va ularni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Banklar tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy usullar va davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga, kredit risklarini boshqarish strategiyalari O'zbekistonning moliyaviy tizimini barqarorlashtirishga yordam beradi. Banklar va qarz oluvchilar o'rtasida o'zaro ishonch va to'liq hamkorlik asosida muammoli kreditlarning kamayishi va ularni bartaraf etish samarali amalga oshirilishi mumkin.

**REFERENCES**

1. Abdullaeva Sh.Z., «Bank iishi». O'quv qo'llanma. –T.: Moliya.2003
2. Abdullaeva Sh.Z., «Pul kredit va banklar» O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, «Moliya» nashriyoti,2000 y.
3. Balabanova I.T., “Banki i bankovskoe delo”, Ucheb posob. Piter, 2003.
4. Kolesnikov V.I., «Bankovskoe delo» Moskva, 4-izd. «Finansi i statistika», 2002g.
5. Jarkovskaya E.P. «Bankovskoe delo» Uchebnik.-M.: Omega-L.2004.
6. Lavrushina O.I., «Den'gi, Kredit, Banki» Moskva, izd. «Finansi i statistika» 2003g.
7. Lavrushina O.I., «Bankovskoe delo» Moskva, izd. «Finansi i statistika» 2003g.
8. Korobkova G.G. «Bankovskoe delo» Uchebnik. -M.: Economist-2004.